

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G'.Numonova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
<b>J.G'.Numonova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion.....	979



## OLIIY TA'LIM TIZIMIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СИСТЕМЕ  
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯREPRESENTATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE HIGHER EDUCATION  
SYSTEM**G.Astonova**Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi  
ORCID ID: 0009-0000-1845-421X**Annotatsiya**

Oliy ta'lim jamiyat taraqqiyotida talabalarga kasbiy sohada muvaffaqiyatga erishish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashda muhim o'rin tutadi. Bu shaxsning intellektual va madaniy rivojlanishiga, shuningdek, yangi bilim va texnologiyalarni yaratishga yordam beradi. Germaniya kabi dunyoning yetakchi davlatlari ta'limga alohida e'tibor qaratib, unga ma'blag' sarflab, ilg'or o'quv dasturlari va o'qitish uslublarini ishlab chiqmoqda.

Germaniya yuqori sifatli ta'lim tizimi bilan mashhur va mamlakatdagi oliy ta'lim uzoq tarixga ega. Germaniya universitetlari tadqiqot va o'qitishning yuqori darajalari, shuningdek, ta'limga innovatsion yondashuvlari bilan yetakchilik qiladi. Germaniya sifatli ta'lim olishga va turli sohalarda bilimlarini kengaytirishga intilayotgan talabalar uchun qulay davlatdir.[1]

Germaniya va O'zbekistondagi oliy ta'lim tizimi bilan bog'liq leksik birliklarni qiyosiy tadqiqatga bag'ishlangan. Dastlab, Germaniya universitetlarining xususiyatlarini, shuningdek, ushbu mamlakatda o'quv jarayoni va oliy ta'limni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni ko'rib chiqaylik. Germaniya ta'lim tizimida o'quvchilar uchun qanday imkoniyatlarni taqdim etish, o'quv dasturlari va o'qituvchilarni tanlash, shuningdek, bilimlarni baholash tizimini tushunish muhimdir. Ushbu tahlil asosida oliy ta'limning Germaniya ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati va ushbu mamlakatning jahon miqyosida ta'lim sohasini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini yaxshiroq tushunish mumkin.

**Аннотация**

Высшее образование играет важную роль в развитии общества в приобретении знаний и навыков, необходимых студентам для достижения успехов в профессиональной сфере и активного участия в общественной жизни. Он помогает интеллектуальному и культурному развитию человека, а также созданию новых знаний и технологий. Ведущие страны мира, такие как Германия, уделяют образованию особое внимание, тратят на него деньги, разрабатывают передовые учебные программы и методы обучения.

Германия известна своей высококачественной системой образования, а высшее образование в стране имеет долгую историю. Немецкие университеты лидируют благодаря высокому уровню исследований и преподавания, а также инновационным подходам к образованию. Германия – благоприятная страна для студентов, желающих получить качественное образование и расширить свои знания в различных областях.

Он посвящен сравнительному изучению лексических единиц, связанных с системой высшего образования Германии и Узбекистана. Для начала давайте рассмотрим характеристики немецких университетов, а также концепции, связанные с образовательным процессом и организацией высшего образования в этой стране. В системе образования Германии важно понимать, какие возможности предоставляются учащимся, выбор учебных программ и преподавателей, а также систему оценки знаний. На основе данного анализа можно лучше понять значение высшего образования в социальном развитии Германии и вклад этой страны в развитие сферы образования в мировом масштабе.

**Abstract**

Higher education plays an important role in the development of society in acquiring the knowledge and skills necessary for students to achieve success in the professional field and active participation in social life. It helps the intellectual and cultural development of a person, as well as the creation of new knowledge and technologies. The world's leading countries, such as Germany, are paying special attention to education, spending money on it, developing advanced curricula and teaching methods.

Germany is known for its high-quality education system, and higher education in the country has a long history. German universities lead the way with high levels of research and teaching, as well as innovative approaches to

education. Germany is a favorable country for students who want to get quality education and expand their knowledge in various fields.

It is dedicated to the comparative study of lexical units related to the higher education system in Germany and Uzbekistan. First, let's look at the characteristics of German universities, as well as concepts related to the educational process and the organization of higher education in this country. In the German education system, it is important to understand what opportunities are provided for students, the choice of curricula and teachers, as well as the knowledge assessment system. Based on this analysis, it is possible to better understand the importance of higher education in the social development of Germany and the contribution of this country to the development of the field of education on a global scale.

**Kalit so'zlar:** innovatsion yondashuv, oliy ta'lim tizimi, sifatli ta'lim, ta'lim sohasi, o'quv dasturi, baholash tizimi, intellektual va madaniy rivojlanish

**Ключевые слова:** инновационный подход, система высшего образования, качественное образование, сфера образования, учебная программа, система оценивания, интеллектуальное и культурное развитие

**Key words:** innovative approach, higher education system, quality education, field of education, curriculum, assessment system, intellectual and cultural development

## KIRISH

Germaniyadagi oliy ta'lim *Hochschulbildung* tizimi bo'lib, u turli yo'nalish va darajadagi o'quv dasturlarini taklif qiluvchi ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Universitetni tamomlash talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshiklarini ochadi va ular tanlagan sohada muvaffaqiyatli martaba uchun yo'l ochadi.

Ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha ta'lim va tarbiyaga mo'ljallangan o'quv dasturlari talabalarga aniq bilim, ko'nikma va metodlarni berish bilan birga, ularni erkin, demokratik va ijtimoiy huquqiy davlat sharoitida ilmiy yoki kasbiy ishlarni bajarishlari hamda mas'uliyat bilan harakat qilishlari uchun mo'ljallangan. Bu maqsadlar barcha turdagi oliy ta'lim muassasalari uchun umumiydir.

Ta'lim va tadqiqot birligining an'anaviy tamoyiliga ko'ra, qonun chiqaruvchining majburiyati talabalarga shaxsiy kasbiy malakasini ilmiy tadqiqot va badiiy rivojlanish bilan bevosita bog'liq holda egallash imkoniyatini yaratib berishdan iborat.

## TADQIQOTNING NATIJALARI

*Hochschulbildung* o'rta ta'limni tugatgandan so'ng talabalarga beriladigan eng yuqori darajadagi ta'limdir. U universitetlar, fakultetlar va boshqa oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlarini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim talabalarga ma'lum bilim yo'nalishlarini chuqur o'rganish va o'z kasbi bo'yicha ixtisoslashish imkonini beradi. Germaniyada *Hochschulbildung* quyidagi turdagi oliy o'quv yurtlari tomonidan taqdim etiladi:

1. Universität – universitetlar eng nufuzli ta'lim muassasalaridir. Ular ijtimoiy va tabiiy fanlar hamda texnologiya kabi keng ko'lamli o'quv dasturlarini taklif qiladilar. Universitetlar ilmiy-tadqiqot ishlarida faol ishtirok etadi.

2. Fachhochschule (texnik universitetlar) talabalarni amaliy tayyorlashga e'tibor qaratadi va kasbiy martabaga tayyorlaydi. Ular muhandislik, biznes, axborot texnologiyalari va boshqa amaliy fanlar bo'yicha dasturlarni taklif qiladi.

3. Kunst- und Musikhochschule (San'at va musiqa maktablari). Ushbu maktablar san'at va musiqaga ixtisoslashgan bo'lib, san'at sohasida iste'dodga ega talabalar imkoniyatlarini rivojlantirish dasturlarini taklif qiladi.

4. Pädagogische Hochschule (Pedagogika universitetlari) pedagogika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va pedagog kadrlar tayyorlashga, ularga o'qitish usullari va ta'limning psixologik jihatlarini o'rgatishga ixtisoslashgan.

5. Duale Hochschule (Dual Universities – Dual universitet)lar talabalarga o'qishni kompaniyalardagi amaliy ishlar bilan birlashtirishga yo'l ochadi. Bu talabalarga universitetda o'qish davomida ish tajribasi orttirish va pul ishlash imkonini beradi.[2]

Nemis oliy o'quv yurtlariga kirish uchun *Hochschulzugangsberechtigung* (oliy o'quv yurtiga kirish huquqi) talab qilinadi. Bu Abitur (Sekundarstufe IIni tugatganlik diplomi), Fachhochschulreife (Kasbiy diplom) yoki talabalarga Hochschulbildungga kirish imkonini beruvchi boshqa malakalar bo'lishi mumkin.

## TILSHUNOSLIK

*Hochschulbildung* dagi o'quv dasturlari *Studiengänge* deb ataladi. Bu talabalar o'zlarining qiziqishlari va martaba erishish rejalariga qarab tanlashlari mumkin bo'lgan maxsus o'quv dasturlari. *Studiengänge* turli darajadagi ta'limni taklif qiladi.

**Bachelor (Bakalavriat):** Bu o'quv dasturining birinchi darajasi bo'lib, odatda 3-4 yil davom etadi. *Bachelor* dasturi talabalarga tanlagan sohasi bo'yicha bazaviy bilimlarni beradi va ularni kasbiy faoliyatga yoki magistratura bosqichida keyingi ta'limga tayyorlaydi.

**Master (magistr):** magistr ma'lum bir sohada ixtisoslashtirilgan ta'limni davom ettiruvchi ilg'or ta'lim darajasidir. *Master* dasturi odatda 1-2 yil davom etadi va talabalarga o'z kasbiy sohasini chuqur o'rganish va tadqiqot olib borish imkonini beradi.

**Doktor (Doktorlik darajasi):** bu talabalar oliy ta'limda olishlari mumkin bo'lgan eng yuqori ta'lim darajasidir. Doktorantura ilmiy-tadqiqot faoliyati va davomiy ilmiy nashrlar bo'lib, yangi bilimlarni rivojlantirishga, fan va jamiyatga hissa qo'shishga xizmat qiladi.

Har bir *Studiengang* o'ziga xos talablari va fanlariga ega bo'lib, ular talabalarga tanlagan sohasini chuqur o'rganish va kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi. O'quv dasturlarini tavsiflovchi leksik birliklar tadqiqi o'quv dasturlari mazmunini chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi.

**Studiengang (o'quv rejasi) –** talaba o'z ta'limi uchun tanlagan o'quv dasturi yoki ta'lim sohasi.

**Curriculum (o'quv rejasi) –** talabalar *Studiengang* ning bir qismi sifatida o'qishi kerak bo'lgan kurslar va fanlarning rasmiy konspekti.

**Modul (modul) –** tegishli kurslar yoki mavzularni birlashtirgan o'quv dasturining alohida qismi.

**Pflichtfach (majburiy fan) –** talaba o'zining *Studiengang* qismi sifatida o'qishi kerak bo'lgan fan yoki kurs.

**Wahlfach (ixtiyoriy) –** talaba tanlovlar ro'yxatidan tanlashi mumkin bo'lgan mavzu yoki kurs.

**Semestr (semestr) –** o'quv yilining ikki yarim yillik davridan biri, odatda, taxminan 6 oy davom etadi.

**ECTS-Punkte (Yevropa kredit birliklari) –** Yevropa Ittifoqi ta'lim tizimida qo'llaniladigan talabalar ish yuklamasining o'lchov birligi.[3]

**Lehrveranstaltungen –** bu talabalar *Studiengang* ning bir qismi sifatida qatnashadigan o'quv mashg'ulotlari. Ular ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari kabi turli xil o'quv formatlarini o'z ichiga oladi. O'quv mashg'ulotlari talabalarga bilimlarini chuqurlashtirish, muammolarni hal qilishni o'rganish, o'qituvchilar va hamkasblar bilan mavzularni muhokama qilish, tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. *Lehrveranstaltungen* uchun baholar talabaning *Studiengang* dagi yakuniy faoliyatiga ta'sir qiladi.

Germaniya universitetlarida ham ta'lim talabalarga bilim olish va ta'limning turli jabhalarida rivojlanish imkoniyatini beradigan turli shakllarda o'tkaziladi. *Lehrveranstaltung* turiga qarab, talabalar o'qituvchilar va hamkasblari bilan uchrashishlari, muhokamalarda qatnashishlari, topshiriqlarni bajarishlari va o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etishlari mumkin.

**Vorlesung (ma'ruza)** o'qituvchi tomonidan talabalar auditoriyasi oldida materialni og'zaki bayon qilish shaklidir. O'qituvchi, odatda, nazariy materialni taqdim etadi, o'quvchilar esa tinglaydilar va qayd qiladilar. *Vorlesung*, odatda, ko'p sonli talabalarga ega va ular *Vorlesung* dan keyin savollar berishlari yoki mavzularni muhokama qilishlari mumkin.

**Seminarraum (seminar)** lar talabalarining faolroq ishtirok etishini ta'minlaydi. Ular, ko'pincha, kichik guruhlarda o'tkaziladi, bu esa o'quvchilarga mavzularni chuqurroq o'rganish va ularni o'qituvchi va hamkasblari bilan muhokama qilish imkonini beradi. *Seminarraum* da talabalar o'z tadqiqotlarini taqdim etishlari yoki munozaralar va almashinuvlarda qatnashishlari mumkin.

**Übung (amaliy mashg'ulot)** talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu topshiriqlarni bajarish, muammolarni hal qilish, bajarib o'rganish yoki laboratoriya mashg'ulotlarini o'z ichiga olishi mumkin. O'qituvchi, odatda, o'quvchilar faoliyatini nazorat qiladi, baholaydi va fikr bildiradi.[4]

O'quv mashg'ulotlari bilan bog'liq leksik birliklar:

**Vorlesungssaal (auditoriya) –** ma'ruzalar o'tkaziladigan joy. Bu talabalar uchun o'rindiqli va o'qituvchi uchun alohida o'rindiqli katta xona.

**Hörsaal** (ma'ruza zali) – *Vorlesungssaalning* sinonimi, shuningdek, ma'ruzalar o'tkaziladigan auditoriyaga ishora qilish uchun ishlatiladi.

**Seminarraum** (seminar xonasi) – seminarlar o'tkaziladigan joy. Bu, odatda, guruh muhokamalari va faol muloqot uchun mo'ljallangan kichik xonadir.

**Übungsraum** (amaliyot xonasi) – amaliyot yoki mashqlar o'tkaziladigan joy. Übungsraumda talabalar amaliy topshiriqlar yoki laboratoriya ishlarini bajarishlari mumkin.

**Präsentation** (taqdimot) – talaba yoki o'qituvchining auditoriyaga taqdim etiladigan tadqiqot natijalari yoki g'oyalari.

**Teilnahme** (ishtirok) – *Lehrveranstaltungda* talabaning bir qismini olish. *Teilnahme* talabalarni baholashning muhim qismi bo'lishi mumkin.

**Gruppenarbeit** (guruh ishi) – talabalar muammolarni hal qilish va loyihalarni bajarish uchun birgalikda ishlaydigan guruh.

**Diskussion** (muhokama) – o'quv mashg'ulotlari davomida talabalar va o'qituvchi o'rtasida fikr va fikr almashish.

**Zertifikat** (sertifikat) – talabaning o'quv sessiyasida ishtirok etganligini yoki *Lehrveranstaltungni* muvaffaqiyatli tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjat.

Imtihonlar Germaniyadagi oliy ta'limning muhim qismi bo'lib, talabalar bilimi va ish faoliyatini tekshirish uchun qo'llaniladi. *Hochschulendaimt* ihonlar bir necha usulda o'tkaziladi, ular yozma ishlar, og'zaki imtihonlar, loyihalar va amaliy testlarni o'z ichiga olishi mumkin. Imtihon turlariga oid quyidagi leksik birliklarni keltirish mumkin:

O'quv yili bilan bog'liq leksik birliklar:

**Semester** (semestr) – o'quv yilining ikki yarim yillik davridan biri.

**Wintersemester** (qishki semestr) – oktyabr oyida boshlanib, fevralda tugaydigan o'quv yilining birinchi semestridir.

**Sommersemester** (yozgi semestr) – o'quv yilining aprel oyida boshlanib, iyulda tugaydigan ikkinchi semestr.

**Semesterferien** (semestr tanaffusi) – talabalar darslarga qatnashmagan semestrlar orasidagi tanaffus.

**Vorlesungszeit** (o'qish vaqti) – o'quv mashg'ulotlari, shu jumladan, ma'ruzalar va seminarlar o'tkaziladigan davr.

**Prüfungszeit** (imtihon davri) – imtihonlar va talabalar bilimi sinovdan o'tkaziladigan davr.

**Ferien** (ta'til) – talabalar yozgi, qishki va boshqa ta'tillarni o'z ichiga olgan darslarga qatnashmaydigan davr.

Nemis talabalari ta'lim olishlari uchun turli xil moliyaviy yordam olishlari mumkin. Moliyaviy yordam ham davlat tashkilotlari, ham xususiy yoki jamoat fondlari tomonidan taqdim etilishi mumkin. Moliyaviy yordam olishning eng keng tarqalgan usullaridan ba'zilar stipendiyalar, kreditlar va kampusdagi ishlarni o'z ichiga oladi. *Stipendien und Finanzierung* – grantlar va moliyalashtirish bilan bog'liq leksik elementlar:

Xalqaro hamkorlik bilan bog'liq leksik birliklar bilan tanishish mazkur davlat ta'lim tizimini tushunishga yordam beradi:

Universitetni tamomlash talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshiklarini ochadi va ular tanlagan sohada muvaffaqiyatli martaba uchun yo'l ochadi. [5]

### XULOSA

O'zbekiston va Germaniya ta'lim turlari leksik birliklarida katta farq mavjud, xususan, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim kabilarni keltirish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Go'zalkhon Rakhmonalievna Astonova, [Use of group work at the lessons of the German language](#), Проблемы современной науки и образования, 2019, Номер 12-2, Страницы 158-160
2. Astonova Guzalkhon Rakhmonalievna, Higher and Vocational Education System in Germany, World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2023/3/9, Том 2, Номер 3, Страницы 36-40
3. Astonova Go'zalkhon Raxmonaliyevna, [System of Vocation and higher Education in Germany](#), JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 2021/12, Том 7, Номер 12, Страницы 316-318

## TILSHUNOSLIK

1. [O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA "TA'LIM TIZIMI" KONSEPTUAL SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI](#), Go'zalxon Astonova, 2023, Fergana state university conference, 106-106
2. [O'zbek va nemis umumiy o'rta ta'lim tizimiga oid leksik birliklar](#), Go'zalxon Astonova, 2023, Fergana state university conference, 108-108